SAMARQAND VILOYATI NUROBOD TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 26-iyun 172-7-99-Q/24 Nurobod tuman hokimligi

Nurobod tumani hokimining 2023-yil 23-noyabrdagi 243-7-99-Q/23-sonli qarorining 1-ilovasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 125-sonli qaroriga muvofiq tumanda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Nurobod tumani Adliya bo‘limining 2024-yil 30-martdagi “Qonun hujjatlarining buzilishi, ularning sabablari va bunga olib keluvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risida”gi 1-15-1/2-sonli taqdimnomasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hududidagi yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli avtomototransport vositalari va ularning tirkamalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha komissiyaning yangi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining 2023-yil 23-noyabrdagi 243-7-99-Q/23-sonli qarorining 1-ilovasi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari (E.Pardayev)ga mazkur qaror imzolangandan so‘ng bir kun ichida hokimlikning nurobod.uz rasmiy veb saytiga joylashtirish va “Nurobod” gazetasida rasmiy elon qilish vazifasi yuklatilsin.

5. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari (M.Ibodullaev) zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **S.Berdikulov**

Nurobod tuman hokimining
2024-yil 26-iyundagi
172-7-99-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Tuman hududidagi yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli avtomototransport vositalari va ularning tirkamalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha komissiyaning yangi

T A R K I B I

1. K.Ashurov - tuman IIB YHXG katta inspektori, ishchi guruhi rahbari

A ’zolari :

2. R.Umarov - Samarqand viloyati Transport boshqarmasi Transport tashuvlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha bosh mutaxassisi *(Kelishuv asosida)*
3. A.Raimberdiyev - tuman IIB o‘rinbosari
4. S.Samadov - tuman “Vatanparvar” MK Kengashi raisi
5. K.Narkuziyev - tuman Mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i
6. O.Dulmonov - “Navoiyuran” DK Nurobod ishlab chiqarish maydoniga qarashli №5 avtosaroy xodimi